



**SURXON VOHASI FOLKLOR IJROCHILIK SAN'ATINING  
LOKAL USLUBLARI**

**Qurbonov Sattor Xursandovich**

TerDU katta o'qituvchisi, dotsent v/b

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7932419>

**ARTICLE INFO**

Received: 01<sup>st</sup> May 2023

Accepted: 11<sup>th</sup> May 2023

Online: 12<sup>th</sup> May 2023

**KEY WORDS**

**ABSTRACT**

Surxon musiqa folklori aholining ijtimoiy-maishiy va ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga bog'liq holda asrlar davomida shakllandi. U o'zbek va tojik xalqlari musiqa madaniyati elementlarini singdirgan holda insonning oilaviy hayoti hamda uning xo'jalik faoliyati, dini va tabiiy hodisalarga daxldor turli vazifalarni o'zida aks ettiradi. Folklor san'ati ijrochilari bo'lmish aytimchi – qo'shiqchi va sozandalar o'z ijodlarida estetik, mo'jizali, fusunkor, ijtimoiy va kommunikativ vazifalarni birlashtirganlar. Chunonchi, mavzu jihatidan xilma-xil mavsumiy-marosimiy va mehnat qo'shiqlari, raqslar, dostonlar, yig'ilar, cholg'u kuylari ular ijodining asosi hisoblanadi.

Shu bilan birga Surxon musiqa folklori ma'lum geografik-hududiy va etnik mintaqalarga mos holda mahalliy tafovutlarga ham ega. Masalan, viloyatning pasttekislik qismidagi aholi madaniyati tog'lik aholi madaniyatidan farq qiladi. Tog'li Boysundagi Machay va Qo'rg'oncha qishloqlarida folklor xarakteri marosimiy jumladan, diniy-marosimiy to'y qo'shiqlari, mehnat asosan, sut sog'uvchilar, junga ishlov beruvchilar va alla qo'shiqlari, boshqa tumanlarda va shaharlarda esa mavzu va ijro an'analari xilma-xil bo'lgan xalq qo'shiqlari: qo'shiq, yalla, lapar va ashula janrlarida ijro etiladi. Boysunda birinchi qo'sh, hosil yig'im-terim va ularga ishlov berish bilan bog'liq mehnat qo'shiqlarini ijro etish xarakterlidir, shuningdek, afsungarlik va baxshilik qo'shiqlari uchraydi. Mintaqaga xos so'fiylar marosimlarida urf bo'lgan "Jahr", shuningdek "Alas" - xalos va "Qushnoch" cholg'u jo'rlogisiz kuylab ijro etiladi. Kuy va qo'shiq ijrosidagi harakat, rasm-rusm, atributika, tuzilma va o'ziga xos ritmik zarblar ularning "Shamanizm" bilan mushtarakligidan darak beradi.

1939 yilda rus arxeologi Okladnikov tomonidan Boysun tumanining Machay qishlog'idagi Teshiktosh g'oridan juda qadimiy Neandertal odam bolasining qoldiq suyaklarini topgani, rus olimi Mixail Mixaylovich Gerasimov tomonidan Neandertal bolaning shakl-shamoyilining tiklanishi bu hudud insoniyatning tamaddum beshiklaridan biri bo'lganini isbotlaydi.

Boysun hududi qadimiy Ipak yo'lining strategik nuqtalaridan biri, savdo yo'lida bojxona xizmatini o'tagan. Tarixda "Temir darvoza" deb nom olgan Darband qishlog'i birgina Baqtriya



mamlakatini Movoraunnahr bilan emas, balki shimoliy mamlakatlarni Hindiston bilan bog'lab turgan katta karvon yo'llaridan biri bo'lgan.

Tabiiyki, madaniy aloqalarning chorrahasida joylashgani uchun bu hududda aholining madaniy va ma'naviy salohiyati baland bo'lgan.

Qadimiy Boysunda yashagan xalqlarning diniy e'tiqodlari har xil bo'lgan. Bu hududda otashparastlik, zardushtiylik, shomonlik aqidalari uyg'un yashagan.

Xalqaro YuNESKO tashkilotining ilmiy ekspeditsiyasi o'tkazgan tadqiqotlar natijasida Boysun tumanining Rabot qishlog'i hududidan eramizdan avvalgi IV-asrga oid qo'rg'onning qoldiqlari kashf qilindi.

Boysun hududidagi ko'plab qadimiy qo'rg'onlarning qoldig'i miloddan avval ham bu hududda aholining madaniyati yuksak bo'lganidan yana bir bor dalolat beradi.

O'rta Osiyoning arablar tomonidan istilo qilinishi Boysun hududida yashaydigan aholining turmushi va e'tiqodiga juda katta ta'sir qildi.

Yozma tarixdan ma'lumki, islomlashtirilayotgan xalqning nomdor san'atkorlari Baqtriya va Movorounahrdan bosh olib Sharqiy Turkiston va Xitoy tomonlardan panoz izlab ketganlar. O'z yurtidan ketishga majbur bo'lgan bu buyuk san'atkorlarni Xitoy imperiyasining madaniyatiga katta ta'sir ko'rsatgani va uning taraqqiyotiga turtki bo'lgani haqida juda ko'p tarixiy yozma ma'lumotlar mavjud.

O'z yurtidan ketolmagan madaniyat va san'at namoyandalari katta yo'llardan chekkaroqda bo'lgan tog'lik hududlarga ko'chib, qishloqlar yaratdilar va bu qishloqlar aholisi o'zining qadimiy san'atini, urf-odatlarini imkoniyat darajasida saqlab qolishga harakat qildilar.

Tog'lik hududda joylashgan Boysun tumanida yashovchi aholi orasida qadimiy qo'shiqlar, raqslar va urfiy udumlarning saqlanib qolishi sababi, tuman aholisining qadimdan ma'rifat va san'atga juda ishqivoz bo'lganligidan desak xato qilmaymiz.

Tarixiy manbalarda O'zbekiston hududida yashagan xalqlarning san'at namoyandalari Toshkent, Samarqand, Shahrisabzdan Xitoy imperatori saroyiga qadar borganligi, bu san'atkorlar yuksak madaniyatga ega bo'lgan xitoyliklarga unutilmas taascurot qoldirganligi haqida ma'lumotlar bor.

Arablarning istilosi bilan Markaziy Osiyo hududiga islom dini kirib keldi. Zardushtiy va Buddaviylik, shomonlik bilan bog'liq e'tiqodlar ta'qib ostiga olindi.

1900 yilda "Zakaspiyskoe obozrenie" gazetasida rus olimi S. D. Maslovskiyning maqolasi bosilgan. Bu maqolada Samarqand shahri yaqinidagi tog'lik hududda "Darx" degan qishloq borligi, bu qishloqda bolalarning go'dakligidanoq san'atning sozandalik, masxarabozlik va raqs turlaridan o'z "Pir"laridan saboq olishlari, bu "San'atkorlar qishlog'i" xalqimizning qadimiy san'atini shu yo'sinda saqlab, avloddan avlodga meros qoldirib kelayotganligi haqida yozilgan.

Ota kasbiga hurmat bilan qarash sharq xalqlarining axloqiy aqidalaridan biri. Qadimdan qishloq va shaharlarda "Zargarlar mahallasi", "Degrezlar mahallasi", "Temirchilar mahallasi", "Misgarlar mahallasi" bo'lgani kabi "San'atkorlar mahallasi" ham bo'lgani aniq.

Biz yuqorida aytib o'tganimizdek tarixiy bo'hronlar xalqning taqdiriga qanday ta'sir qilgan bo'lsa, uning madaniyati va san'atiga ham shunday ta'sir ko'rsatdi.



Antik davrlardayoq O'rta Osiyo xalqlarining betakror san'ati Xitoy, Eron, Hindistondan qadim tarixga ega bo'lgan xalqlarning san'atiga ulkan ta'sir ko'rsata olgani yozma tarixdan ma'lum.

Baqtriya, Sug'diyona, Xorazm kabi madaniyat o'choqlarida kamolga yetgan iste'dodli musavvir, masxaravoz aktyorlar, haykaltaroshlar, raqs ustalari bu san'at turlari tazyiqqa uchramagan mamlakatlarga chiqib ketdilar. O'z yurtida qolgan san'atkorlar esa tog'lik qishloqlarda hayot kechirib, Darx qishlog'iga o'xshash "San'atkorlar qishloqlari"ni yaratdilar va bu qishloqlar qadimiy san'atimizning saqlanib qolinishida katta o'rin tutdi. Bunday san'atkor qishloqlar Surxondaryo viloyatida ham bor edi.

Boysun tumanidagi "Katariguzar" qishlog'i, Oltinsoy tumanidagi (qadimda Denov tumani hududi) "Katta Vaxshivor" va "Kichik Vaxshivor" qishloqlari, Sariosiyo tumanidagi tog'lik "Zevar" qishlog'i, Denov tumanidagi Sina va O'shor qishloqlari qadimdan san'atkorlar qishlog'i deb tan olingan va bu an'ana hozirgi kungacha davom etib kelmoqda.

Qadimgi odamning tabiatga ta'sir qiluvchi eng muhim vositalaridan biri afsungarlik qo'shiqlari bo'lgan. Jumladan, bunday qo'shiqlar taqvimiy mehnat kunlari va to'y marosimlarida ijro etilgan. Afsungarlik qo'shiqlarining ma'lum maqsadga yo'nalganligi, ularning musiqiy-she'riy mazmuni va badiiy shakllanishining asosi hisoblanadi. Boysunning taqvimiy mehnat kunlarida aytiladigan afsungarlik qo'shiqlari Navro'zda: "Yil boshi", "Navro'z keldi", "Navro'z ayyomi", "Navro'z muborakbodi", "Sumalak", ekin ekish chog'idagi mehnat jarayonlarida: "Shoxmoylar", "Qo'sh haydash", "Don sepdim", Hosil yig'ishda: "Mayda", "Oblo baraka", "Yozi", mollarni sog'ish chog'ida ularni "avrash", avrab sog'ishda: "Ho'sh-ho'sh", "Turey-turey", "Chirey-chirey" bilan bog'liq.

Quyosh chiqqanda - "Oftob chiqdi", yomg'ir yoqqanda - "Sust xotin", qor yoqqanda - "Qor keldi" va shamolda - "Choy momo", "Mirhaydar bobo - shamol chaqirish" to'g'risidagi afsungarlik qo'shiqlari alohida guruhga kiradi. "Yo ramazon" yoki "Yo rabiman" qo'shiqlari sho'x-quvnoq ohanglar bilan xalq-musiqa ijodining o'ziga xos shaklini ifoda etadi.

Surxon xalq folklor musiqasi ijrochiligi ijodi, xususan, ijro san'ati uchun xos bo'lgan tafovutlar tumanlarda xalqlar: o'zbeklar, ularning ko'pchiligini qo'ng'iroq, qatag'on, Barlos, Juz, qipchoq va hokazo urug'lar tashkil etadi va tojiklarning o'zaro lahjaviy ta'sirlari bilan bog'liq. Aholining ma'lum bir qismi tojiklardan iborat bo'lgan qishloqlarda tojik xalq qo'shiqlari ijro etilib, ular, asosan, to'y va xalq sayillarida yangraydi. Shuningdek mazmun va ijro bo'yicha xilma-xil bo'lgan o'zbek xalq qo'shiqlari voha musiqasi hayotida salmoqli o'rinni egallaydi. O'tkazilgan ilmiy tadqiqotlardan bizga ma'lumki, hatto tojiklarning to'ylarida o'zbek to'y marosimiy qo'shiqlari ijrosiga ko'proq o'rin beriladi.

Surxonning zamonaviy to'y qo'shiqlari turkumi rango-rang va xilma-xil: "Beshik to'y", "Sunnat to'y", "Muchal to'y", "Nikoh to'y". Ularda musiqasi, o'yin, raqslar, tomoshalar va xalq o'yinlari: "Ko'pkari" - uloq, "Kurash" - chavqi, "Piyoda uloq"lar omixta bo'lib, uyg'unlashib ketgan. Ularning har biri xalq musiqasi ijodida yorqin voqea hisoblanib, uning ahamiyati shundaki, avvalo, keng xalq ommasi an'anaviy yodaki san'atga, zamonaviy musiqasi ijodigagina emas, balki "Zehn bilan tinglash"ni tarbiyalashda ham zo'r bermoqda. To'y qo'shiqlari doimiy musiqasi taomili moyasi, kundalik estetik talab in'ikosidir.

Binobarin, shuni ta'kidlash joizki, to'y - hashamlar musiqasiga asos bo'lgan ko'pgina qo'shiqlar ishqiy, o'ynoqi qo'shiqlarga singib ketgan. Ammo, shunga qaramay an'analarni



muhofaza qilish ma'nosida "Yor-yor", "Hazor ali" yoki "Kelin salom", "Al-muborak", "Kelin va kuyov qutlovi", "Kuyov sinov", "Kelin kiyit" va boshqalar barqarordir.

Faqat ayollar emas, goho erkaklar ham ijro etadigan "Alla" ko'pincha yakka tarzda badiha shaklida namoyon bo'ladi. Cho'zib aytiladigan ishqiy qo'shiqlar ham o'ziga xos, masalan, cholg'u jo'rligisiz "og'ir ohangda" tuyaning qadam tashlashini eslatuvchi karvonchilar qo'shig'i "Tuya qadam" shular jumlasidandir.

Surxon folklor ijrochiligi xalq tarixining, hayoti va turmushining, o'y va orzularining, dunyoqarashi va psixologiyasining timsoli sifatida hozirgi kunda ham Boysun tumanidagi "Boysun", "Quralay" bolalar xalq ansambllari, Sho'rchi tumanidagi "Bulbuligo'yo", Qiziriq tumanidagi "Qo'ng'irot", Sariosiyo tumanidagi "Zevari" va "Dashnobot anori", Oltinsoy tumanidagi "Sharshara", Termiz davlat universiteti qoshidagi "Jayhun" folklor-etnografik xalq ansambllari, Qumqo'rg'on tumanidagi "Mahliyo" bolalar folklor ansambllari tufayli yashashda davom etmoqda, ular milliy an'analar va musiqiy-she'riy folklori saqlab qolish va targ'ib qilish bo'yicha bir talay ijobiy hamda ma'suliyatli ishlar olib bormoqdalar.

Ota-bobolarimizdan meros bo'lib qolgan udum va marosimlarni yig'ib, zamonaviy uslublarda qayta ishlab, sahnaga olib chiqib, xalqqa namoyish etishga folklor san'ati va uning tuganmas merosidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Surxondaryo folklor ijrochiligini o'rganish va talqin qilish orqali yoshlar qadimiy urf-odatlarimiz, udumlarimiz, milliy an'analarimiz, qadimiy qo'shiq va kuylarimizga havas, milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalanadi va milliy musiqa san'atimizni chuqur, mukammal o'rganadilar.

Surxondaryo qadimiy urf-odatlar, an'analar o'ziga xos shaklda mukammal saqlangan va saqlanayotgan hududlardan biri bo'lib, uni yoritishda qadimiy an'analarimizni kelajak avlodlarga munosib tarzda qoldirayotgan "Boysun" folklor-etnografik xalq ansambli faoliyatiga to'xtalib o'tishni lozim topdik. "Boysun" folklor etnografik xalq ansambli, bobolarimiz, momolarimiz qalb qo'rini berib kuylagan qo'shiqlarini nafaqat ijro etib, balki unga hozirgi zamon ruhini ham qo'shib O'zbekiston badiiy san'atida o'ziga xos uslub bilan joy olgan yagona folklor maktablaridan biridir.

O'sha yagonaligi tufayli "Boysun" ansambli yillar davomida xalq ijodiyotiga, urf-odatlariga marosimlariga qanchalik tayanib dastur tayyorlagan bo'lsa, shunchalik san'at sirlarini mukammal o'rganib, katta tajribalar to'plab, havaskor jamoadan professional darajasiga chiqib oldi.

"Boysun" ansambli o'z repertuarida qadimiy etnik turmush bilan bog'liq urf-odatlar, o'ziga xos marosim va udumlarni badiiy g'oyaviyligini sahnaviy ko'rinishlar orqali yanada to'ldirib, sayqal berib o'z muxlislariga ega bo'ldi. Ansambl xalq amaliy san'ati an'analarini namoyish etishi bilan bir qatorda xalq qo'shiqlari, laparlar, aytishuvlar, o'lan va yor-yorlar, alla aytishuvlarini ayrimlari sozsiz, ayrimlari milliy musiqa sozlari: doira, nay, g'ijjak, rubob, dutorlar yordamida yoki qadimiy milliy-an'anaviy cholg'ulari: chanqovuz, sibizg'a, shupullak, qovoq nog'ora, loyko'za nog'ora, ducho'ba, do'mbiralar jo'rligida ijro etib kelmoqdalar.

### References:

1. S.Yo'ldosheva, G.Sattorova "Folklor-etnografik ansambllari". Toshkent. o'qituvchi. 2007 yil.



2. "O'zbek xalqining milliy folklor san'ati va etnomadaniy qadriyatlar". Ilmiy to'plam. Toshkent. Navro'z nashriyoti. 2013 yil.
3. "O'zbek milliy folklor san'ati va etnomadaniy qadriyatlar". O'quv Qo'llanma. Toshkent. Navro'z nashriyoti. 2014 yil.
4. S.Qurbonov, "Folklor musiqa o'qitish metodikasi". O'quv qo'llanma. Toshkent. "ILM-ZIYO-ZAKOVAT". 2021 yil.
5. S.Qurbonov, Z.Abdullaeva "Folklor musiqani o'zbek xalq san'ati tizimida o'qitish metodikasi". Termiz. "IRFON-PRINT" nashriyoti. 2022 yil.